



The role of the History Institute of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan in the development of history during the years of independence

Abdinabiyev KHIKMATILLA¹

Termez University of Economics and Service

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

Keywords:

Institute of History,

History of statehood of the

Uzbek people,

Material culture and ancient

history of Uzbekistan,

History of ancient times,

Modern history,

Historiographic research.

ABSTRACT

This article presents information about the scientific activities of the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan from independence to the present, as well as international conferences and seminars organized by it.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp248-255>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mustaqillik yillarida tarix fanining rivojida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining roli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Tarix instituti,

O'zbek xalqi davlatchiligi

tarixi,

O'zbekistonning moddiy

madaniyati va qadimgi

tarixi,

qadimgi davrlar tarixi,

eng yangi tarix,

tarixshunoslik o'qishlari.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida Tarix institutining mustaqillikka erishgandan hozirgi vaqtgacha bo'lgan ilmiy faoliyati, tashkil etgan xalqaro konferensiya va seminarlari haqida ma'lumotlar berilgan.

¹ Teacher, Department of Social and Humanities, Termez University of Economics and Service

Роль Института истории Академии наук Республики Узбекистан в развитии истории в годы независимости

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Институт истории,
История
государственности
узбекского народа,
Материальная культура и
древняя история
Узбекистана,
История древнейших
времен,
Новейшая история,
Историографические
исследования.

В данной статье представлена информация о научной деятельности Института истории Академии наук Республики Узбекистан от независимости до настоящего времени, а также организованных им международных конференциях и семинарах.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibida Tarix instituti 1943-yil tashkil etilgan. Institut tashkil etilgandan so'ng, tarixchi olimlarimiz oldiga vatanimiz tarixining yoritilmagan joylarini, o'zbek xalqi shakllanish tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyati tarixini yoritish kabi ulkan vazifalar qo'yildi. Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyaning yirik ilmiy markazlari bilan o'zaro hamkorlikda ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari, seminarlar muntazam olib borilmoqda, "Tarix fanining dolzarb muammolari" mavzusidagi maqolalar to'plamlari chop etilgan. Tarix institutining ilmiy va tashkiliy faoliyatida tub o'zgarishlar O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng sodir bo'ldi. Tarix instituti haqida so'z yuritar ekanimiz, birinchi Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlarini alohida qayd etmog'imiz lozim "Tarix fani, uning bugungi istiqboli haqida so'z yuritar ekanimiz, men yana bir masalaga e'tibor qaratishni istardim. Agar biz tarixchilarni taroziga solsak, bugungi kun nuqtai nazaridan baholasak, talabga javob beradiganlari juda ozchilikni tashkil etadi. Shuning uchun tarixchi mutaxassislar tayyorlashni universitetlardan, ya'ni boshlang'ich nuqtadan yaxshilash lozim deb o'ylayman. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab institut xodimlari tomonidan sovet davri tarixining soxtalashtirilgan qismlarini ilmiy jihatdan yoritishga e'tibor berdilar. O'zbekiston tarixidagi ko'plab muammolar yangi nuqtai nazardan xolisona yoritila boshlandi. Bu borada ham birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Mustaqil fikrlaydigan olimlarimiz bo'lmasa, o'z davlatimiz, xalqimiz, millatimiz tarixini o'zimiz tiklamasak, o'zimiz xolisona yozmasak, uni boshqalar boshqacha qilib yozadi. Yozish bilan cheklansak mayli-yu, bizni, o'sib kelayotgan avlodni, hatto, olimlarimizni ham o'z yo'rig'iga solishga harakat qiladi". Shu asnoda tarix institutining faoliyatini yanada takomillashtirishni zamonning o'zi taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori institut faoliyatini yanada takomillashtirish uchun huquqiy asos bo'ldi. Qarorda bir qancha ustuvor vazifalar ham belgilab berildi. O'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoniy tarixini o'rganish, mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda saqlanayotgan tarixiy manbalar tahlili asosida yurtimiz tarixini ochilmagan jihatlarini ochib berish, manbalarga asoslangan holda, ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish hamda tarix sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash O'zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiya tarix instituti faoliyatining bosh maqsadi etib belgilab berilgan. Shu bilan birga tarixchi olimlarimiz oldiga O'zbekiston hududida ilk davlatchilik asoslari yuzaga keltirgan tarixiy shart-sharoitlar va davlatning kelib chiqishi masalasini atroflicha tadqiq etish va aniqlash, o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi, o'zbek xalqi etnogenezi hamda ushbu muammolar bo'yicha arxeologik va barcha turdagi yozma manbalar tadqiqotlari natijalarini jamlash, har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilish va muvofiqlashtirish, eng qadimgi davrdan hozirga qadar davlatchilik tarixiy bosqichlarida hududimizda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o'rganish, xolisona tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar yaratish hamda O'zbekiston tarixiy atlasini tayyorlash, mamlakatimiz va chet el olimlarining eng qadimdan hozirgi kungacha o'zbek xalqi tarixi bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlarini tahlil qilish asosida ularning batafsil bibliografiyasini va ilmiy tarixshunosligini yaratish, o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixiga oid tadqiqotlarni olib borishda, ularni ommalashtirishda bir yoqlama yondashuvga, o'tmishni soxtalashtirishga, mustamlakachilik mafkurasi aqidalariga yo'l qo'ymaslik hamda eski g'oyaviy andozalardan holi bo'lgan, zamonaviy ilmiy tafakkur asoslarini o'zida mujassam etgan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga muvofiq mamlakatimizda oliy ta'lim tizimining tarixga taalluqli yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar, ayniqsa magistrlar tayyorlash jarayoniga ham alohida e'tibor berildi. Bu borada oliy ta'lim muassasalari bilan bevosita ilmiy hamkorlik o'rnatish, ularda pedagogik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini uyg'unlashtirish masalalariga alohida e'tibor berish, chet el ilmiy markazlari bilan nazariy hamda amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish, ilmiy anjumanlar, barcha shakldagi ilmiy muhokama, munozara, fikr almashuv tadbirlarini tashkil etish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bu olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar xususida birinchi Prezidentimiz I.Karimov "olimlarimiz eng yaxshi an'analarni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarining ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilm ziyolilarimizning muhim fazilati hamma vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat"– deb o'z fikrlarini bildirib o'tgan edi. Olimlarimizning ilmiy salohiyatini yanada kuchaytirish maqsadida xorijiy davlatlar bilan ham shu bo'yicha hamkorlik ishlari olib borildi, tarix instituti bo'limlari va markaz xodimlari ham bir qator xorijiy mamlakatlarda malaka amaliyotlarini o'tab kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz tarixchi olimlarimiz oldiga yuksak mas'uliyatli ishni qo'yib, tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislarga murojaat qilib, sizlar millatning haqqoniy tarixini yoritib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch-qudrat baxsh etsin. G'ururini uyg'otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug' g'oya kerak, bu g'oyaning zamirida xalqimizning o'zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan esa o'zlikni anglash mumkin emas, deb bejizga ta'kidlamagan edi. Tariximizni haqqoniy yoritishni vazifa sifatida qo'yilishida ham bir millatni ikkinchisiga qarshi qo'yish emas balki xalqning haqiqiy xolisona tarixini yoritishni topshiriq sifatida berilganini anglamog'imiz zarurdir. Bo'lim tomonidan akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi davlatchiligi tarixi" Respublika ilmiy seminari o'tkazilib, seminar materiallarini muntazam to'plam sifatida nashr etish ishlari ham amalga oshirildi, O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasi bilan birgalikda Vatanimiz tarixining dolzarb masalalarini yorituvchi davriy to'plam va "O'zbekiston tarixi" ilmiy jurnali tashkil etildi. Haqiqiy xolisona tariximizni yoritishda institutga qarashli Tarix,

Sharqshunoslik, Arxeologiya institutlari, shu sohaga taalluqli bo'lgan ilmiy muassasalar tarkibini, ish faoliyatini o'zgartirishni zamon talab qilmoqda. Albatta yangicha dunyoqarash mafkuradan xoli bo'lgan tariximizni yoritishda yuqoridagi tuzilmalarning faoliyatini ham tubdan takomillashtirish zarur edi. O'zbekistonda arxeologiya fanining rivojlanishida ulkan hissa qo'shgan Yahyo G'ulomovni yodga olib birinchi Prezidentimiz I. Karimov "Bizda dovyurak zamonaviy fikrlaydigan olimlar yetishmaydi. Men akademik Yahyo G'ulomovni yaxshi bilardim, u mustaqil fikrga ega bo'lgan, kerak bo'lsa eng yuqori lavozim egasiga to'g'ri gapni ayta oladigan olim edi. Tarixchilar yaxshi biladilar, odatda tepaliklar qarida tarixiy obidalar, butun bir shahar yastangan bo'ladi. Sho'ro davrida faqat tomlardagina paxta ekilmay qolgan bir paytda, ana shunday tarixiy tepaliklarni ham tekislab paxta dalasiga aylantirish siyosati avj olganda, bunga qarshi chiqqan olim Yahyo G'ulomov bo'lganini men yaxshi eslayman. Bu fazilati tufayli tazyiq ko'rganini ham eshitganman, vatanparvar odam shunday bo'ladi. Ana shunday odamlar hayoti bizga ibrat bo'lmog'i lozim. Ana shunday olimlarimizning mehnat faoliyatlarini mustaqillikdan keyingi davrda to'g'ri baholab akademik nomi bilan bog'liq har yili ilmiy konferensiya o'tkazilishi qarorda ham belgilab berilgan. Mustaqillik yillarida institut tomonidan "O'zbekiston tarixi" maxsus tarixiy ilmiy jurnal, davriy nashrlar, "O'zbekiston tarixining yangi sahifalari" tadqiqot risolalari va O'zbekiston tarixining turli davrlariga bag'ishlangan bir qator yirik monografiyalar nashr etildi. Mustaqillik yillarida institut mamlakatimizda tarixiy tadqiqotlari bo'yicha respublikaning yetakchi ilmiy-tadqiqot markaziga aylanib ulgurdi va hozirgi kunda ilm-fan taraqqiyotining o'ziga xos tadqiqot doirasida:

- qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-tarixiy sohasida fundamental hamda amaliy tadqiqotlar olib borish, tadqiqot usullari va uslublari sohasida yangi bilimlarga ega bo'lish;

- o'zbek davlatchiligining rivojlanish bosqichlari va uning insoniyat sivilizatsiyasidagi rolini o'rganish;

- o'zbek xalqining intellektual, madaniy va ma'naviy merosining rivojlanish bosqichlari, shaxs, shu jumladan islom sivilizatsiyasidagi tutgan o'rnini o'rganish;

- o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi, madaniy antropologiya, O'zbekistonda yashovchi turli millat va elatlarning etnologiyasini o'rganish;

- mustaqillik davri tarixini o'rganish;

- tarixshunoslik va manbashunoslik tadqiqot uslublarini ishlab chiqish. Zamonaviy O'zbekiston tarixi metodologiyasining asosiy mezonlari tarixiylik, haqqoniylik, ilmiy ob'yektivlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan iborat. Hozirgi kunda institutda 4 ta bo'lim va 2 ta markaz faoliyat olib bormoqda. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi.

"Qadimgi davrlar tarixi" bo'limi 1998-yil tashkil etilgan bo'lib, "O'zbekistonning moddiy madaniyati va qadimgi tarixi", "Qadimgi va o'rta asrlar" bo'limi kabi nomlarda faoliyat yuritgan. 2020-yil 8-iyundan "Qadimgi davr tarixi" bo'limi deb qayta tashkil etilgan.

Hozirda bo'lim xodimlari asosan, qadimiy davr tarixiga oid, jumladan, sivilizatsiya va davlatchilik tarixi, qadimgi shaharlarning shakllanishi, ekologiya va qadimgi sivilizatsiyalarning o'zaro munosabatlari, arxeologik yodgorliklarni zamonaviy texnologiyalar yordamida tadqiq etish, ijtimoiy munosabatlar, ibtidoiy davrda mulkchilik

va boshqaruv xususiyatlari kabi mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Bo'lim faoliyati davomida tarixiy tadqiqotlarga turli yondosh fanlar sohasida erishilgan yutuqlarni amaliyotga joriy qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

“O'rta asrlar tarixi” bo'limi 1943-yilda tuzilgan bo'lib, 2020-yildan “O'rta asrlar tarixi” bo'limi deb atala boshlangan. IX–XIX asrlar birinchi yarmi O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixining turli masalalari, jumladan, davlat boshqaruvi, shaharlar tarixi, hunarmandchilik va savdo, tashqi siyosat, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot masalalari hamda manbashunoslik tadqiqotlari bo'yicha ilmiy izlanish olib borilmoqda. Bo'lim xodimlari 2002–2005-yillarda AQShning G.Washington universiteti, 2004–2005-yillarda YUNESKOning “Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi (History of civilizations of Central Asia)” VI jildlik nashrini chop etish xalqaro loyihalarida ishtirok etishgan.

“Yangi tarix” bo'limi 1943-yil tuzilgan, bo'lim O'zbekistonning 1860–1991-yillar davri tarixini ilmiy jihatdan tadqiq etish ishlari bilan shug'ullanadi, mustamlakachilik tuzumi va uning oqibatlari, ma'muriy-hududiy va siyosiy boshqaruv tizimi, iqtisodiy qaramlik oqibatlari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayotda ro'y bergan ziddiyatli jarayonlar, xalqning boshidan kechirgan musibatlar hamda mustaqillik uchun kurashlari, mustabid hukumatning qatag'onchilik siyosati, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlarining o'zbek xalqining hayotiga ta'siri hamda oqibatlari, XX asrning taniqli namoyondalari – siyosiy arboblar, olimlar, tarixiy shaxslar, allomalar va ma'rifatparvarlar faoliyatini ilmiy asosda o'rganadi. Bo'limda chet el ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar bilan doimiy ilmiy hamkorlik aloqalar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 2003-yil SOROS fondining “CASSA” dasturi doirasida oliy o'quv yurtlari uchun “Buxoro va Xiva Rossiya protektorati ostida” mavzusida maxsus kurs yaratish va chop etish uchun yakka tartibdagi granti, AQSh Davlat Departamentining “Qiyosiy dinshunoslik” nomli xalqaro granti (2005–2007), UNESCO ning “Markaziy Osiyo va Qozog'iston tarixi” (“History of Central Asia and Kazakhstan”) nomli xalqaro grant' ishtirok etilgan. 2009-yil aprelida Koreya Milliy arxivida, 2012-yil aprelida Germaniyaning Martin Lyuter universitetining Sharqshunoslik instituti hamda Pasau universitetida, 2013-yil sentabrda Avstriyaning Eronshunoslik institutida xalqaro ilmiy seminar va yozgi maktablarda ma'ruzalar o'qilgan. Bo'lim xodimlari Yevropa ittifoqining “Erasmus Plus International Dimension” loyihasida Belgiyaning Luven katolik universiteti, “Antropologiyani rivojlantirish laboratoriyasi”, Avstriya Fanlar akademiya Eronshunoslik instituti, Gerda Henkel fondining loyihasi doirasida Indiana universiteti, Gumbold universitetlarida stajirovka o'tashgan.

“Eng yangi tarix” bo'limi 1996-yil tuzilgan Mustaqillik davri ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy turmush muammolari, o'zgarishlar, yangilanishlar, tashqi siyosat masalalari doirasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo tarixini o'rganish uchun Yevropa, AQSh, Osiyo va MDHning yirik ilmiy tadqiqot muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yildan-yilga rivojlanib bormoqda.

“Etnologiya va antropologiya” markazi 1943-yilda “Etnografiya” bo'limi sifatida tashkil etilgan. Mazkur bo'lim keyingi yillarda “O'zbek xalqi etnografiyasi” va “Etnogenez va etnik tarix” nomlari bilan faoliyat olib borgan. 2020-yil 8-iyundan boshlab “Etnologiya va antropologiya” markazi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbek xalqining etnik tarixi, tarixiy etnografiyasi va zamonaviy etnografik jarayonlar yo'nalishlarida samarali ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda Jumladan, 1940–1960-yillarda o'zbek xalqining etnik tarixi va tarixiy etnografiyasi, 1950–1980-yillarda

sovetlar davri etnografiyasi, 1990-2000-yillarda o'zbek xalqining etnik tarixi, etnomadaniyati va milliy xususiyatlari tadqiq etildi. 2000–2010-yillarda O'zbekistonda yashovchi turli diasporalar etnologiyasi o'rganildi. So'nggi yillarda o'zbek millati tarixi, etnik hamda madaniy o'zlikni anglash, zamonaviy o'zbek qishlog'i, diasporologiya, etnoekologik madaniyat va iqtisodiy antropologiya ilmiy muammolari doirasida tadqiqotlar olib borildi.

2005-yildan markazda har ikki yilda bir marta “Akademik Karim Shoniyozov o'qishlari” turkumida ilmiy anjumanlarni o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Hozirga qadar O'zbekiston Milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Namangan davlat universiteti va Qarshi davlat universiteti bilan hamkorlikda jami 8 ta ilmiy anjuman o'tkazildi. O'tkazilgan yig'inlar asosan, etnologiya fanining nazariy-uslubiy muammolari, Markaziy Osiyodagi an'anaviy va zamonaviy etnomadaniy jarayonlar, o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi, milliy hamda mahalliy madaniyatlar yo'nalishlariga bag'ishlandi. Shuningdek, anjuman materiallari tarzida 6 ta ilmiy to'plam nashr etildi. Jumladan, markaz xodimlarining ilmiy tadqiqotlari asosida “Boysun madaniy muhiti”, “Navro'z” va “Palov madaniyati va an'analari” UNESCOning “Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxati”ga kiritildi. Shuningdek, “O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi obyektlari ro'yxati” shakllantirildi. Markazda xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar bilan doimiy ilmiy hamkorlik aloqalar yo'lga qo'yilgan bo'lib Jumladan, 2015–2021-yillarda Tyubengen (Germaniya) universiteti bilan hamkorlikda “Wolkswagen” fondining “Sirdaryo havzasi aholisining ijtimoiy va ekologik madaniyati tarixi” va 2019-yildan Fransiya Ijtimoiy Fanlar akademiya bilan birgalikda Yevropa Ittifoqining “Markaziy Osiyoda marosim iqtisodiyoti” xalqaro ilmiy loyihalari bajarildi. 2017–2020-yillarda markazning 9 nafar ilmiy xodim va doktorantlari Yevropa Ittifoqining “Erasmus+” loyihasi doirasida Luven katolik universiteti Belgiyada ilmiy stajirovkada bo'ldi.

“Tarixshunoslik va manbashunoslik” markazi 1968-yil tuzilgan, markazning shakllanib, rivojlanib borish jarayonida tarixshunoslik va manbashunoslik yo'nalishlarida samarali ish olib borilib, 1970-1990-yillarda O'zbekiston tarixining manbalarda yoritilishi, Turkiston o'lkasi tarixshunosligi, O'zbekistonda ijtimoiy fanlar tarixshunosligi, 1997–2002-yillarda Turkiston o'lkasi tarixining xorijiy tarixshunosligi, 2003–2005-yillarda O'zbekistonning intellektual tarixida Fanlar akademiyasining tutgan o'rni, 2003–2007-yillarda XX asr O'zbekiston tarixshunosligining tavsifi, 2007–2011-yillarda O'zbekistonda tarixiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi (qadimgi davrdan to hozirgacha), 2009–2011-yillarda XX asr O'zbekiston tarixi va tarixchilari, 2011–2016-yillarda O'zbekistonda ta'lim tarixi va tarixshunosligi: tajriba va muammolar, 2015–2016-yillarda O'zbekistonning eng yangi tarixi ingliz-amerika tadqiqotchilari nigohida 2017–2018-yillarda O'zbekiston tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi: nazariya, shakllanish va rivojlanishiga bag'ishlangan darslikni yaratish, 2017–2020-yillarda O'zbek davlatchiligi tarixi tarixshunosligi nazariyasi va shakllanishining tarixiy bosqichlari, 2018–2020-yillarda Birinchi Renessans davrida O'zbekiston shaharlari: tarixshunoslik tahlili mavzulari doirasida tadqiqotlar amalga oshirildi. Bugungi kunda markazda “O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixshunosligi (eng qadimgi davrdan hozirgacha)” nomli uch jildlik nashr doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixshunoslik va manbashunoslik masalalarini keng miqyosda tadqiq etish maqsadida

2020-yildan markaz xodimlarining tarkibi xitoy, arab, fors va turkiy tillardagi ilmiy adabiyot hamda manbalar bilan ishlovchi yosh mutaxassislar bilan to'ldirildi. Tarixshunoslik yo'nalishlaridagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish hamda bu borada Oliy ta'lim va turli ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan keng miqyosdagi ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida 1989-yildan buyon "Tarixshunoslik o'qishlari" umummilliy yig'ini o'tkazib kelinadi. Hozirga qadar jami 9 ta ilmiy yig'in o'tkazildi va undagi ma'ruzalar 6 ta ilmiy to'plam doirasida nashr etildi. Umuman olganda, institutda 2011–2021-yillar ichida 80 dan ortiq monografiyalar nashr etildi. 2017-yil 5-iyundagi O'zbekiston respublikasi prezidenti qarori bilan O'zbekiston tarixi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'quv jarayoni bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, o'zbek xalqi hamda milliy davlatchilik tarixi sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borishga professor-o'qituvchilarni, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va talabalarni keng jalb etish jarayonini tubdan takomillashtirish, O'zbekiston tarixi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'quv jarayoni bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish, o'zbek xalqi hamda milliy davlatchilik tarixi sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borishga professor-o'qituvchilarni, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va talabalarni keng jalb etish ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yildi. Albatta tariximizni yoritishda yangi metodologiyalarni amaliyotga joriy qilish muhim sanaladi. Tarixiy bilimlarimiz tizimida albatta tarixni ilmiy va izchillik asosida xolisona yoritib berish bu mustaqillikdan keyingi davrdagi eng asosiy masala sifatida qaraldi va bunday tizimli islohotlar albatta biz uchun mustaqillikdan keyin zarur edi, keyingi davrda Tarix institutida ham islohotlar amalga oshirildi. Tarix institutida 2011–2021-yillar ichida 80 dan ortiq monografiyalar turli o'quv qo'llanmalar nashr etildi. O'zbekistonni rivojlantirishni 2017–2021-yillarga mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"da ham ilm fanni rivojlantirish 4 ustuvor yo'nalishda alohida qayd etib o'tilgani bizga ma'lum va shu band doirasida barcha fanlar qatori tarix fanini ham rivojlantirishga doir amaliy ishlarni ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutining Yosh olimlar kengashi institut qoshidagi doimiy faoliyat yurituvchi jamoat tuzilmasi hisoblanadi. 2007-yil Tarix instituti Toshkent Islom universiteti bilan hamkorlikda "Markaziy Osiyoda islom qadriyatlari: tolerantlik va ijtimoiylik" mavzusida YUNESKOning O'zbekistondagi bo'limi, IFEAC (Fransiya) va MOXTI (IICAS-UNESCO) ning moliyaviy ko'magida xalqaro anjuman o'tkazildi. 2001–2021-yillarda xalqaro grantlar va shartnomalar doirasida 67 ta xodim chet el tajribalarini ilmiy o'rganish uchun dunyoning 21 mamlakatida bo'lishdi. Shu yillarda institut xodimlari dunyoning 27 mamlakatida o'tkazilgan 154 ta ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalari bilan chiqishdi va dunyoning 13 ta davlatlaridagi ilmiy jurnal va to'plamlarida 153 ta ilmiy maqolalari chop etildi.

Xulosa qilib aytganda Mamlakatimizda tarixshunoslikni rivojlantirish va muhim muammolarga yechim izlash, haqiqiy va xolisona tarixni yoritish borasidagi tadqiqotlarga mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan so'ng boshlandi, ayniqsa 1998-yildagi qaror tarixiy tadqiqotlar sohasiga yanada davlatimiz tomonidan e'tibor kuchaytirilib tarix bo'limi faoliyatini yanada kuchaytirganligini anglamog'imiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov, Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent 1998-yil.
2. I.Karimov, O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, 1997-yil

3. Sh.M.Mirziyoyev.Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent 2021-yil
4. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent-2017-yil
5. Lex.uz
6. Academiya.uz